YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RAG'BATLANTIRISH ORQALI HUDUDLARNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	1089
Ibragimova Ma'mura Muxiddinovna	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISH MODELLARI VA ULARNING AHAMIYATI.....	1094
Abduraimov Dilshod Muratkulovich	
ИССЛЕДОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ КАРАКАЛПАКСТАНА В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТРУКТУРЫ	1098
Оспанова Феруза Базарбаевна	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	1103
Saidrahmatova Zuhraxon Saidazim qizi	
INVESTITSIYA DASTURLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI MENEJMENT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARI.....	1107
Axmedova Dilnoza Muzaffarovna	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА РЫНОК ТРУДА В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ, ТЕНДЕНЦИИ И СТРАТЕГИИ АДАПТАЦИИ	1112
Хусайнов Р.Р., Кариева Л.С., Загидулина К.Р.	
KONUSSIMON SHAKLDAGI TIBBIY ENDOPROTEZLAR UCHUN TAYYOR SHAKLGA YAQIN ZAGOTOVKALAR OLIISHNING RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYASI	1121
Umarova Maxmuda Abdugafarovna, Karabayeva Lola Xasanovna	



KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIYAVIY HISOBOTNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	1125
Mahmudova Nargiza Davlat qizi	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ	1129
Даниярова Улбосин Куатбаевна	
ASSESSING THE IMPACT OF DIGITAL ECONOMY TECHNOLOGIES ON REGIONAL PRODUCTION, SERVICE SECTOR DEVELOPMENT, AND EMPLOYMENT	1135
Kurbonova Malika Akhmad kizi	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ВТОРОМУ	1140
Ходжаева Хадия Сулейманова	
IMPROVING INTEREST RATE RISK MANAGEMENT PRACTICES IN COMMERCIAL BANKS AND ITS PRIORITIES	1146
Seitnazarov Daniyar Baxadirovich	
KAM QAVATLI TURAR-JOY BINOLARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA GIPSOKARTON KARKAS DEVORLARINING USTUNLIGI	1151
Mirzaxonova Mexribon Marat qizi, Raxmonova Mahliyoxon Avazjon qizi, Baratova Mushtariybegim O'tkir qizi	
O'ZBEKISTON IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA ENERGIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNI PROGNOZLASHDA ARIMA MODELIDAN FOYDALANISH.....	1159
Kuralbayev Jo'rabek Aybekovich	
IPO ORQALI KAPITAL JALB QILISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI	1163
Mamatmurodov Alisher Saparboyevich	
ВОЗДЕЙСТВИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА РАЗВИТИЕ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1172
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
YANGI TITIB-TA'MINLAGICH TA'SIRIDA PAXTANI TITILISH JARAYONINING NAZARIY TAHLIL NATIJALARI	1178
Qurbanbaev Elyor Baxtiyarovich, Sobirov Doniyor Xolmurodovich	
TIJORAT BANKLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALARI.....	1183
Uralov Shavkat Makhramovich	
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARI.....	1188
Tuychiyev Abduraxmon G'ofurovich	
AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT LOGISTIKASI VA TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI	1193
No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA INQIROZ SHAKLLANISHIGA MAKROIQTISODIY VA TARMOQ OMILLARINING TA'SIRI.....	1198
O'rinboyev Doniyorjon Baxtiyorjon o'g'li	
5LP LINTERIDAGI CHIGIT ARALASHTIRGICHNI MODERNIZATSIYA QILISH BO'YICHA BAJARILGAN ISHLARNING TAHLILI VA TADQIQOT YO'NALISHLARINI BELGILASH	1204
Nazirov Raxmatjon Rasulovich, Karimov Maxmud Raxmatovich, Abduqahorov No'monbek Oybek o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA BUG'DOY YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI	1209
Azamqulov Nurbek Ulug'bek o'g'li	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT XARAJATLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	1215
Fayziyev Rabim Alikulovich, Tohirova Zarifa Shuhrat qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1221
Ajibayeva Raiya Maxsutovna	



CHAKANA SAVDO TARMOG'INING MILLIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	1225
G'aybullayev Sarvar O'ktam o'g'li	
MEHNAT BOZORI STRUKTURASI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1232
Soatmo'minova Zarnigor Olimjon qizi	
KORXONALAR AUDITIDA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	1237
Tuyinov Botir Ismatovich	
THE ROLE OF NATIONAL MENTALITY AND VALUES IN INSTITUTIONAL TRANSFORMATION PROCESSES.....	1243
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ HR-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПЛАТФОРМ: ВЫЗОВЫ И РЕШЕНИЯ.....	1250
Амирджанова Ситора Сунатовна, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммадович, Урозбоев Хайрулла Муродбойевич, Маматкулов Хумоюн Бобирович	
HUDUDLARNING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGINI OSHIRISH VA MAHALLIY BOSHQARUV VAKOLATLARINI KENGAYTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY SAMARADORLIGI: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL	1255
Sharipov Abror Komilovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM VA MEHMONXONA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION SIYOSAT	1260
Shokirov Firdavsbek Ulug'bekovich	
HUDUDIY RIVOJLANISHNI BAHOLASH METODOLOGIYASINING ILMIY MUAMMOLARI	1265
Sattorov Sanjar Abdumurodovich	
TRANSPORT TIZIMIDA YO'LOVCHI TASHISHNI TASHKIL ETISHNING ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1271
Sevara Aytieva Allaberdiyevna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA LIKVIDLIKNI QOPLASH ME'YORI (LCR) DINAMIKASI VA LIKVIDLIK BOSHQARUVI SAMARADORLIGI	1279
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN CHAKANA BANK XIZMATLARINI KO'RSATISHNING JORIY HOLATI TAHLILI	1286
Xikmetov Nodirbek Ikromovich	
O'ZBEKISTONDA TARIXIY-MADANIY TURIZM DESTINATSIYALARINING HUDUDIY RIVOJLANISHI VA SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	1293
Ibroximov Nodirbek	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOY TA'MINOTINI TARTIBGA SOLISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI.....	1299
Xusanov Baxodir Sheraliyevich	
QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	1302
Yahyoyev To'liqin Ismatulla o'g'li	
QASHQADARYO VILOYATIDA SUG'URTA XIZMATLARI RIVOJLANISHINING STATISTIK TAHLILI.....	1306
Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS AND CURRENT STATE OF INVESTMENTS IN HUMAN CAPITAL IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	1310
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
MANAGEMENT SYSTEM TRANSFORMATION AS A STRATEGIC DRIVER OF SUSTAINABLE PRODUCTION EFFICIENCY IN INDUSTRIAL ENTERPRISES	1317
Kodirov Bekzod Khomidjonovich	



O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISH SHAROITIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	1322
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MOLIVAVIY BOSHQARUV TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA INNOVATSION MEXANIZMLARI	1327
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
MINTAQANING TURISTIK VA DAM OLISH MAJMUASINI RIVOJLANTIRISHNI BOSHQARISH.....	1332
Q.A. Musaxanov	
CHORVACHILIK INFIRATUZILMASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	1336
Nurmanov Sherzod Xujayarovich	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ТУРИЗМА И ВОЗМОЖНОСТЬ ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1340
Усманова Диялфруз Каршиевна	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI KENGAYTIRISHDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING METODOLOGIK ASOSLARI.....	1344
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTI RISKLARINI BAHOLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY VA AMALIY JIHATLARI	1351
Sattorov Shohrux Maxmudjon o'g'li	



O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTI RISKLARINI BAHOLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY VA AMALIY JIHATLARI

Sattorov Shohrux Maxmudjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada qayta sug'urtalash jarayonida mahalliy sug'urta tashkilotlarining ishtirok ulushini oshirishning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, sug'urta tashkilotlari riskini baholashda anderrayterlarning tegishli malaka va bilimga ega bo'lishi, risklarni baholash jarayonida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni inobatga oluvchi algoritim hamda sug'urta tashkilotlari ustav fondini ma'lum foizigacha oshirish orqali risklarni xedjirlash natijasida erishiladigan moliyaviy samara haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: qayta sug'urta, ulush, riskni baholash, algoritim, ustav fondi, anderrayter, riskni xedjirlash, moliyaviy samara, to'lov qobiliyati.

Аннотация: В данной статье анализируется значение увеличения доли участия местных страховых организаций в процессе перестрахования. Также подробно рассматриваются вопросы наличия у андеррайтеров соответствующих знаний и квалификации при оценке рисков, использование алгоритма, учитывающего макроэкономические показатели в процессе оценки рисков, а также финансовый эффект, достигаемый в результате хеджирования рисков за счёт увеличения уставного фонда страховых организаций до определённого уровня.

Ключевые слова: перестрахование, доля участия, оценка рисков, алгоритм, уставный фонд, андеррайтер, хеджирование рисков, финансовый эффект, платёжеспособность.

Abstract: This article analyzes the importance of increasing the participation of local insurance organizations in the reinsurance process. It also provides detailed information on the need for underwriters to have the appropriate skills and knowledge in assessing the risks of insurance organizations, the algorithm that takes into account macroeconomic indicators in the risk assessment process, and the financial effect achieved as a result of hedging risks by increasing the authorized capital of insurance organizations to a certain percentage.

Keywords: reinsurance, share, risk assessment, algorithm, authorized capital, underwriter, risk hedging, financial performance, solvency.

KIRISH

Bugungi kunda jahon hamjamiyatida sodir bo'layotgan geosiyosiy vaziyat, texnologik innovatsiyalarning rivojlanishi hamda kiberxavf-xatarlarning tobora avj olishi jahon sug'urta bozori doirasiga hal etilishi zarur bo'lgan bir qancha vazifalarni qo'yimoqda. Shu munosabat bilan dunyoda sug'urta faoliyatini transformatsiya qilish, sohaga raqamli texnologiyalarni keng ko'lamda joriy etish, kiberxavf-xatarlarni sug'urtalash, sug'urta kompaniyalarining to'lov qobiliyatini mustahkamlash orqali sug'urta mahsuloti iste'molchilarining manfaatlarini himoya qilish, inklyuziv va mikrosug'urtani rivojlantirish xalqaro darajada amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlarining asosiy yo'nalishlarini tashkil etmoqda. Birgina Xitoyda so'nggi sakkiz yil ichida sug'urta mukofotlari hajmi milliy valyuta va AQSh dollarida barqaror o'sdi. Jumladan, 2025-yilda sug'urta mukofotlari hajmi 441 mlrd. AQSh dollarini tashkil etib, 2024-yil bilan solishtirganda (373 mlrd. AQSh dollari) 18%ga o'sdi.

O'zbekistonda sug'urta tashkiloti risklarini baholash orqali tartibga solinayotgan tarmoqlarni diagnostika qilish, ulardagi muammolarni tahlil qilish va hal etish mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Amerikalik olim Benjamin Friedman o'z tadqiqotida risk turlari bo'yicha aktivlarni diversifikatsiya qilish, yuzaga keladigan risklarni sug'urtalash va sug'urtalovchilar o'rtasida taqsimlash, ya'ni qayta sug'urtalash muammolarini ko'rib chiqqan [1].

Rus olimlari S.V. Ermasov, N.B. Ermasovalar ham o'z ilmiy-tadqiqot ishlarida riskni baholash jarayonida sug'urtalashning asosiy tamoyillari ichida sug'urta tizimining faoliyat yuritishi iqtisodiy tamoyillari va sug'urtaning huquqiy munosabatlarini amalga oshirilishi tamoyillarini farqlash lozimligi borasida fikr yuritganlar [2].

Mahalliy olimlardan X.M. Shennayev o'z nazariy va amaliy qarashlarida sug'urta tashkiloti tomonidan ko'rsatiladigan sug'urta mahsuloti sug'urtalanuvchiga sug'urta shartnomasi tuzish orqali taqdim etiladigan asosiy va yordamchi xizmatlar yig'indisidir, deya alohida mulohaza yuritgan [3].

G.T. Xalikulova o'z nazariyalarida iqtisodiy risklarni oldini olish mamlakat YaIMga, sug'urta xizmatlarini aholi hayotiga kirib borishi, uni mamlakatda ommalashtirishga, milliy iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy resurslarini milliy iqtisodiyotga jalb qilish va ularni kapitalizatsiya qilish masalalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini alohida ta'kidlab o'tgan [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishida xorijiy va mahalliy olimlarning nazariy qarashlari tahlili, empirik ma'lumotlar va statistik ko'rsatkichlar asosida sug'urta tashkiloti risklarini baholash usullari va ularning makroiqtisodiy ta'siri o'rganildi. Xorijiy mamlakatlardagi amaliyotlar solishtirma tahlil qilindi va O'zbekiston sharoitiga mos keladigan taklif va tavsiyalar muhokama etilib, zarur xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugun mamlakatimizda aholining sug'urta bozoriga ishonchini oshirish maqsadida sug'urta to'lovlarini nazorat qilish, adolatsiz raqobatning oldini olish, turli "moliyaviy piramidalar", kiberfiribgarlikka qarshi kurash, aholining raqamli va moliyaviy savodxonligini oshirishga ko'maklashish kabi strategik maqsadlar amalga oshirilmoqda. Ushbu strategik maqsadlar pirovardida sug'urta bozorining mamlakat iqtisodiyotida barqaror o'sishiga erishish va sug'urta bozorida qonunchilikni takomillashtirish kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu munosabat bilan sug'urta tashkiloti risklarini baholash amaliyotini takomillashtirishda quyidagi amaliy jihatlarga e'tibor berish lozim. Jumladan:

- qayta sug'urtalash jarayonida mahalliy sug'urta tashkilotlarining ishtirok ulushini oshirish hamda sug'urta risklarini respublika hududidagi mahalliy sug'urta kompaniyalariga taqsimlash;

- sug'urta tashkilotlari riskini baholashda va sug'urta portfelini optimal shakllantirishda andarrayterlarning tegishli malakaga ega bo'lishini ta'minlash;

- sug'urta tashkilotlarida risklarni baholash jarayonida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni inobatga oluvchi kompleks tahlil algoritmini ishlab chiqish;

- sug'urta tashkilotlari zaxira jamg'armasining cheklangan miqdorini ustav fondining ma'lum foizigacha oshirish orqali risklarni xedjirlash tizimini takomillashtirish.

Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, qayta sug'urtalash operatsiyalarining katta qismi xorijiy qayta sug'urtalash orqali amalga oshirilganda:

- qayta sug'urta mukofotlari xorijga chiqariladi;

- sug'urta to'lovlari bo'yicha valyuta majburiyatlari ortadi;

- milliy sug'urta sektorida kapital yetishmovchiligi yuzaga keladi.

Qayta sug'urtalashda mamlakatimizdagi mahalliy sug'urta kompaniyalari ishtirok ulushini oshirish natijasida:

- sug'urta mukofotlarining kamida 40–50 foizini mamlakat hududida saqlab qolishga;

- sug'urta tashkilotlarining ichki investitsion resurslarini shakllantirishga;

- sug'urtalovchilarning kapitalizatsiyasini tezlashishiga erishish mumkin (1-jadval).

1-jadval.

O'zbekistonda mahalliy qayta sug'urtalash ulushini oshirish orqali erishiladigan samara¹ [5]

T/r	Ko'rsatkich	joriy holat	Amaliy natijaga erishilgandagi holat	O'zgarish
1	Valyutaning chiqib ketishi	9,6 mlrd. so'm	4,8 mlrd. so'm	-50%
2	Zararlilik koeffitsienti (LR)	72%	66%	-6 %
3	Xarajat koeffitsienti (ER)	28%	26%	-2 %
4	Kombinatsiyalangan koeffitsient (CR)	100%	92%	-8 %
5	Kapital rentabelligi (ROE)	8%	13%	+5 %

Jadval ma'lumotlarini tahlil qilsak, yillik qayta sug'urtalash mukofotlari 9 mlrd so'mni tashkil etsa, ayni vaqtda qayta sug'urtalashning 80 foizi xorijga, 20 foizi ichki bozorga ketmoqda. Amaliy natijaga erishilgandan so'ng esa xorijiy qayta sug'urta ulushi 40 foizga qisqarib, 4,8 mlrd so'mni tashkil etmoqda hamda mos ravishda mahalliy qayta sug'urta ulushi 60 foizga oshmoqda.

1 Manba: muallif ishlanmasi



Masalan, agar yillik qayta sug'urtalash mukofotlari hajmi shartli ravishda 1 mlrd AQSh dollarini tashkil etsa, mahalliy ishtirokning 50 foizga yetkazilishi natijasida 500 mln dollar ekvivalentidagi mablag' ichki moliya tizimida qoladi.

Shuningdek, sug'urta tashkiloti risklarining ma'lum qismini mahalliy sug'urta kompaniyalari o'rtasida taqsimlash:

- risklarning bir kompaniyada jamlanib qolishini oldini olishga;
- mahalliy bozorda risk portfelining muvozanatli taqsimlanishini ta'minlashga;
- sug'urta to'lovlari bo'yicha tizimli xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Turkiya, Janubiy Koreya, Malayziya kabi yirik mamlakatlarning tajribasiga ko'ra, milliy qayta sug'urtalash klasterlari orqali risklarning 30–50 foizini ichki bozorda qoldirish sug'urta sektorining stressga chidamliligini sezilarli darajada oshirishga erishilgan.

Qayta sug'urtalashda faol ishtirok etish mahalliy sug'urta kompaniyalari uchun:

- yirik va murakkab risklarni baholash tajribasini oshiradi;
- aktuariy va risk-menejment kompetensiyalarini rivojlantiradi;
- xalqaro sug'urta standartlarini (Solvency II, IFRS 17) joriy etishga zamin yaratadi.

Natijada mahalliy sug'urta tashkilotlarining texnik natijalari yaxshilanadi, zararlilik indeksi prognozlanadigan darajaga tushadi, sug'urta bozori institutsional jihatdan mustahkamlanadi.

Mahalliy qayta sug'urtalash ulushining oshishi esa qayta sug'urtalash xarajatlarini optimallashtiradi, komissiya va yillik tushum oqimlarini oshiradi, investitsion daromadlar bazasini kengaytiradi.

Sug'urta risklarining sezilarli qismini ichki bozorda joylashtirish tashkilotning moliyaviy suverenitetini mustahkamlaydi, favqulodda holatlarda (tabiiy ofatlar, yirik sanoat avariylari) tezkor to'lovlarni ta'minlaydi va sug'urta sektorining iqtisodiy xavfsizlikdagi rolini kuchaytiradi. Bu, ayniqsa, infratuzilma, energetika, qurilish va qishloq xo'jaligi kabi strategik tarmoqlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Quyidagi jadval ma'lumotlarida valyuta chiqimi, Combined Ratio (CR) va ROE ko'rsatkichlariga mahalliy qayta sug'urtalash ulushini oshirishning iqtisodiy ta'siri aniq raqamlar asosida ko'rsatilgan (2-jadval).

2-jadval.

Chet el sug'urta tashkilotlarining qayta sug'urtalash mukofotlari hajmi² (mln. so'm) [5]

Ko'rsatkichlar	31.03.2024		31.03.2025		O'zgarish %
	mln.so'm	Yalpi sug'urta mukofotiga nisbatan % da	mln.so'm	Yalpi sug'urta mukofotiga nisbatan % da	
Umumiy sug'urta sohasi					
Qayta sug'urtaga berilgan	352 938	16 %	521 534	21 %	+47,8%
Qayta sug'urtalashga qabul qilingan	283 665	13 %	355 174	15 %	+25,2%
Hayotni sug'urta qilish sohasi					
Qayta sug'urtaga berilgan	66	0 %	24 405	12 %	>+1000%
Qayta sug'urtalashga qabul qilingan	-	0 %	-	0 %	0%

Sug'urta tashkilotlari risklarni baholashda faqat mikro omillar (mijoz, obyekt, shartnoma va h.k.) bilan cheklanmasdan, makroiqtisodiy muhit ta'sirini ham tizimli hisobga olish zarur. Sababi, sug'urta tariflarining aniqligini oshirish, sug'urta tashkilotining zararlilik va noaniqlikni kamaytirish, kompaniyaning moliyaviy barqarorlik va rentabelligini ta'minlash makroiqtisodiy omillarga bevosita bog'liqdir.

Sug'urta tashkiloti risklariga bevosita yoki bilvosita ta'sir etuvchi asosiy makro ko'rsatkichlar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

Iqtisodiy o'sish va sikliklik ko'rsatkichlari:

- YalM o'sish sur'ati
- Sanoat ishlab chiqarishi indeksi
- Investitsiyalar hajmi

Inflyatsiya va narxlar darajasi:

- Iste'mol narxlari indeksi (CPI)
- Qurilish materiallari narxlari indeksi
- Tibbiy xizmatlar narxlari

Pul-kredit va moliya bozori ko'rsatkichlari:

- Markaziy bank asosiy stavkasi
- Kreditlash hajmi va foiz stavkalari
- Bank tizimi likvidligi

Valyuta va tashqi sektor omillari:

- Valyuta kursi (USD/UZS)
- Import ulushi
- Tashqi qarz

Ijtimoiy-demografik omillar:

- Aholi bandligi va ishsizlik darajasi
- Daromadlar o'sishi
- Urbanizatsiya

Bundan tashqari, yuqoridagi makro ko'rsatkichlarning sug'urta tashkiloti risklariga sezgirligini baholash, mavjud riskni tahlil qilish hamda ekonometrik baholash ham tavsiya etiladi. Natijada har bir makroindikator uchun ta'sir koeffitsienti aniqlanadi.

Mazkur makroiqtisodiy algoritm natijasida tariflar makroiqtisodiy sharoitga moslashadi, zararlarning kutilmagan o'sishi kamayadi, sug'urta portfeli siklik risklarga chidamli bo'ladi, sug'urta tashkilotining moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligi oshadi.


Bundan tashqari, tahlil algoritmini sug'urta risklarini baholash jarayoniga joriy etish sug'urta tariflarining aniqligini oshirish, zararlilik darajasini pasaytirish va sug'urta tashkilotlarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim metodologik vosita hisoblanadi.

Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va kutilmagan yirik zararlar ta'sirini yumshatish mexanizmlaridan biri zaxira jamg'armasining yetarli hajmda shakllantirilishidir. Amaldagi sharoitda zaxira jamg'armalarining cheklangan miqdorda belgilanishi sug'urta kompaniyalarining yuqori riskli vaziyatlarga moslashuvchanligini pasaytiradi. Shu bois, sug'urta tashkilotlari zaxira jamg'armasining maksimal miqdorini ustav fondining oshirish risklarni xedjirlash tizimini kuchaytirish nuqtayi nazaridan iqtisodiy jihatdan asoslangan chora hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda sug'urta tashkilotlari uchun makro-risk skoring indeksi shakllantirilgan bo'lib, u quyidagicha aniqlanadi.

$$MRI = \sum_{k=1}^n w_k \times Z_k$$

Bu yerda, Z_k – normallashtirilgan makro ko'rsatkich; W_k – sug'urta turi bo'yicha real og'irlik; Makro-risk skoring indeksini quyidagi chizmada talqin qilish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Makro-risk skoring indeksi¹ [5]

Yuqoridagi chizma ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, makro-risk yuqori bo'lgan davrlarda qayta sug'urtalash ulushi oshadi, retention (o'zida saqlash) limiti kamaytiriladi, texnik rezervlar va kapital bufferlari kuchaytiriladi.

Zaxira jamg'armasi quyidagi asosiy risklarni qoplashda muhim ahamiyat kasb etadi:

- sug'urta to'lovlarining kutilmagan keskin o'sishi;
- makroiqtisodiy shoklar (inflyatsiya, valyuta tebranishlari);



- qayta sug'urtalashda to'lovlarning kechikishi;
- katastrofik va tizimli risklar.


Xedjirlash mexanizmi sifatida zaxira jamg'armasi:

- risklarni ichki kapital hisobiga yutib olish imkonini beradi;
- qayta sug'urtalashga haddan tashqari qaramlikni kamaytiradi;
- sug'urta kompaniyasining likvidlik barqarorligini mustahkamlaydi.

Zaxira jamg'armasining ustav fondiga nisbati oshirilganda:

- kompaniyaning to'lov qobiliyati ko'rsatkichi yaxshilanadi;
- texnik zaxiralar bilan kapital o'rtasidagi nomutanosiblik kamayadi;
- stress-testlarda kapital yetariligi yuqoriroq darajada saqlanadi.

Masalan, agar sug'urta tashkilotining ustav fondi 100 mlrd so'm bo'lsa, amaldagi 30–40 foiz limitda zaxira 30–40 mlrd so'mni tashkil etadi, 60 foiz limitda esa zaxira 60 mlrd so'mga yetadi. Bu holat yirik zararlar (yillik mukofotlarning 25–30 foiziga teng bo'lgan to'lovlar) yuzaga kelganda kompaniyaning to'lovga qobiliyatini saqlab qolish imkonini beradi (2-rasm).



2-rasm. Sug'urta tashkiloti zaxira jamg'armasiga CR va ROEning ta'sir grafiği³ [5]

Yuqoridagi illyustrativ chizma ma'lumotlarini tahlil qilsak, stress kuchaygan sari kompaniya zaxira jamg'armasiga tayanadi. Yuqori zaxira kompaniyaga kattaroq shoklarni yutib olish, to'lovga qobiliyatni (likvidlik/solvency) ushlab turish va majburiyatlarni uzluksiz bajarish uchun kengroq moliyaviy ko'mak beradi.

Bundan tashqari, zaxira jamg'armasi hajmining oshishi qayta sug'urtalashga beriladigan risk ulushini qisqartirishga imkon beradi hamda qayta sug'urtalash mukofotlari bo'yicha xarajatlarni kamaytiradi. Makroiqtisodiy shoklarga chidamlilikni oshiradi, bunda inflyatsiya, valyuta kursining qadrsizlanishi va foiz stavkalari o'zgarishi sug'urta to'lovlari hajmini oshiradi. Zaxira jamg'armasining mavjud foizini oshirilishi risklarni xedjirlash tizimini quyidagi yo'nalishlarda kuchaytiradi:

- ichki kapital xedji (internal hedge) roli ortadi;
- katastrofik risklar uchun moliyaviy tampon yaratiladi;
- qayta sug'urtalash, tarif va underayting qarorlari o'rtasida muvozanat ta'minlanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, sug'urta tashkilotlari zaxira jamg'armasining maksimal miqdorini ustav fondining 60 foizigacha oshirish:

- sug'urta risklarini xedjirlashning ichki mexanizmlarini kuchaytiradi;
- kompaniyalarning to'lovga qobiliyati va moliyaviy barqarorligini oshiradi;
- qayta sug'urtalash xarajatlarini optimallashtiradi;

- sug'urta bozoringing institutsional barqarorligini ta'minlaydi.

Sug'urta tashkilotlarining muvaffaqiyati va barqarorligi to'g'ridan-to'g'ri ularning riskni baholash va sug'urta portfelini optimal shakllantirish qobiliyatiga bog'liq. Bu jarayonlarda anderrayterlarning roli benihoya muhimdir.

Anderrayterlar – bu sug'urtalovchining nomidan sug'urta shartnomalarini tuzishda riskni baholovchi va qabul qilish yoki rad etish bo'yicha qaror qabul qiluvchi mutaxassislar. Ularning tegishli malakaga ega bo'lishi sug'urta kompaniyasining moliyaviy salomatligi va bozordagi raqobatbardoshligi uchun asosiy omil hisoblanadi.

Anderrayterning asosiy vazifasi – potensial sug'urta qoplamasiga tortilayotgan riskning ehtimoliy zarari miqdorini aniqlashdir. Buning uchun ular quyidagilarni amalga oshiradilar:


Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish (sug'urta qildiruvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar, tashqi manbalardan olingan ma'lumotlar va h.k.);

Riskni klassifikatsiyalash. Bunda aniqlangan xavflarni sug'urtalovchi standartlari asosida klassifikatsiya qilish (masalan, standart, yuqori xavf, past xavf);

Riskning amalga oshish ehtimolini va uning moliyaviy oqibatlarini aniqlash;

Riskning darajasi va ehtimoliy zararga asoslanib, sug'urta mukofoti miqdorini aniqlash. Bu mijoz uchun qulay, lekin kompaniya uchun rentabelligini ta'minlaydigan darajada bo'lishi kerak;

Qaror qabul qilish (3-rasm).



3-rasm. Anderrayterlarning tegishli malakaga ega bo'lishidan kutiladigan asosiy natijalar⁴ [5]

Sug'urta tashkilotlarida anderrayterlar faoliyati murakkab va javobgarlik talab qiladi. Shuning uchun ular quyidagi malaka talablariga ega bo'lishi talab etiladi:

- Maxsus bilimlar (sug'urta qonunchiligi va me'yoriy hujjatlari, sug'urta turlari bo'yicha chuqur bilim, riskni baholash metodologiyalari va aktuar hisob-kitoblar asoslari, moliyaviy tahlil va iqtisodiy ko'rsatkichlarni tushunish bilimlariga ega bo'lishi);

- Analitik va tanqidiy fikrlash qobiliyati (murakkab ma'lumotlarni tahlil qilish, ularning orasidan eng muhimlarini ajratib olish va qaror qabul qilish);

- Sug'urta qildiruvchilar bilan samarali muloqot qilish, zarur ma'lumotlarni aniq va tushunarli tarzda olish;

- Har bir qarorni xolislik va vijdonan qabul qilish, kompaniya manfaatlarini himoya qilish bilan birga mijoz huquqlarini ham hisobga olish;

- Sug'urta bozori, texnologiyalar va risk omillari o'zgarib borayotgani sababli, anderrayterlar doimiy ravishda o'z bilimlarini yangilab turishlari kerak.

Anderrayterlar nafaqat alohida risklarni baholaydilar, balki ular sug'urta kompaniyasining umumiy sug'urta portfelini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Optimal portfel quyidagilarni o'z ichiga oladi:

I. Portfeldagi risklarni turli tarmoqlar, geografik hududlar va sug'urta turlari bo'yicha taqsimlash. Bu bitta yoki bir nechta yirik zararining umumiy portfelga ta'sirini kamaytiradi;

II. Yuqori daromad keltirishi kutilayotgan, lekin boshqariladigan darajada riskka ega bo'lgan mahsulotlarni portfelga



kiritish;

III. Mijozlar talab qiladigan va bozorda talab yuqori bo'lgan sug'urta mahsulotlarini portfelga qo'shish;

IV. Katta hajmdagi risklarni boshqa sug'urta kompaniyalari (qayta sug'urtachilar) bilan bo'lishish. Bu anderrayterlar tomonidan qabul qilingan risklar miqdorini boshqarishda muhim vositadir.

Anderrayterlar sug'urta tashkilotining asosiy ustuni hisoblanadi. Ularning bilimli, tajribali va halol bo'lishi kompaniyaning qabul qilayotgan risklarini to'g'ri baholashiga, sug'urta mukofotlarini adolatli belgilashiga va sog'lom, diversifikatsiyalashgan sug'urta portfelini shakllantirishiga imkon beradi. Malakali anderrayterlar sug'urta kompaniyasining uzoq muddatli barqarorligi, rentabelligi va mijozlar ishonchini qozonishining asosiy kafolatidir. Shu sababli, sug'urta kompaniyalari anderrayterlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va ularni rag'batlantirishga katta e'tibor qaratishlari zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda sug'urta tashkiloti risklarini baholash amaliyotini takomillashtirish, uning ilmiy va amaliy jihatlarini tahlil qilish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosa, amaliy taklif va tavsiyalar shakllantirildi:

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, sug'urta tashkilotlari milliy iqtisodiyotda investitsion muhitni tashkil qiluvchi asosiy bo'g'in hisoblanadi, sug'urta tashkilotining investitsion faoliyatini takomillashtirish zarur;

Iqtisodiy risklarni oldini olish va YaIMni qayta taqsimlash jarayonlariga sug'urta faoliyatining ta'siri, sug'urta xizmatlarini aholi hayotiga kirib borishi, uni mamlakatda ommalashtirish, milliy iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha izlanishlar amalga oshirildi;

Jahonda globallashtirish jarayoni keskin ortayotgan bir paytda sug'urta tashkilotlarining faoliyatini jahon talablariga moslashtirish va sug'urta tashkilotlari faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida transformatsiya qilishning ilmiy-uslubiy asoslari ishlab chiqildi.

O'zbekistonda sug'urta tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri mamlakatning investitsion faoliyatida sug'urta tizimining ishtirokini faollashtirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Benjamin Friedman. *The Moral Consequences of Economic Growth*, 2005.
2. Ермасов С.В., Ермасова Н.Б. *Страхование: Учеб. пособие для вузов.* – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004. – 462 с.
3. Shennayev X.M., Xalikulova G.T. *Sug'urta marketingi. O'quv qo'llanma* – T.: Yangi nashr, 2012. – 212 b.
4. G.T.Xalikulova "Sug'urta tashkilotlarining innovatsion faoliyati samaradorligini oshirish yo'nalishlari" DSc ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi 2024-yil.
5. Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda internet manbalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100